



SO'FIYLIK G'OYALARINING O'ZBEK XALQINING MILLIY O'ZLIGI, MA'NAViy VA AXLOQIY QADRIYATLARI SHAKLLANISHIDAGI AHAMIYATI

Tuychiyev Zafar Nardankulovich

Independent Researcher at Fergana State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22668082>

Abstract

This article analyzes, from a socio-philosophical perspective, the role of Sufi ideas in the formation of the national identity and spiritual and moral values of the Uzbek people. It highlights the significance of Sufi teachings in human spiritual perfection, purification of the lower self, moral refinement, and the development of tolerance, compassion, and social solidarity, as well as the influence of the Yasawiyya, Kubrawiyya, and Khwajagan-Naqshbandiyya Sufi orders on the spiritual heritage. It also reveals the socio-philosophical significance of Sufi ideas in the development and preservation of the national culture, worldview, moral values, and spiritual heritage of the Uzbek people.

Key words: Sufism, Sufi ideas, national identity, spiritual values, moral values, purification of the lower self, the Perfect Human, spiritual perfection, tolerance.

Аннотация

В данной статье с социально-философской точки зрения проанализирована роль суфийских идей в формировании национальной идентичности, духовных и нравственных ценностей узбекского народа. Освещено значение учения суфизма в духовном совершенствовании человека, воспитании нафса, нравственном очищении, формировании толерантности, милосердия и социальной солидарности, а также влияние тарикатов Яссавия, Кубравия и Ходжагон-Накшбандия на духовное наследие. Также раскрыто социально-философское значение суфийских идей в развитии и сохранении национальной культуры, мировоззрения, нравственных ценностей и духовного наследия узбекского народа.

Ключевые слова: суфизм, суфийские идеи, национальная идентичность, духовные ценности, нравственные ценности, воспитание нафса, совершенный человек, духовное совершенствование, толерантнос.

Annotatsiya

Ushbu maqolada so'fiylik g'oyalarining o'zbek xalqining milliy o'zligi, ma'naviy va axloqiy qadriyatlari shakllanishidagi o'rni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Unda tasavvuf ta'limotining inson ma'naviy kamoloti, nafs tarbiyasi, axloqiy poklanish, bag'rikenglik, mehr-shafqat va ijtimoiy





birdamlikni shakllantirishdagi ahamiyati, shuningdek, Yassaviya, Kubraviya va Xojagon-Naqshbandiya tariqatlarining ma'naviy merosga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, so'fiylik g'oyalarining o'zbek xalqining milliy madaniyati, dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va ma'naviy merosini rivojlantirish hamda saqlashdagi ijtimoiy-falsafiy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, so'fiylik g'oyalari, milliy o'zlik, ma'naviy qadriyatlar, axloqiy qadriyatlar, nafs tarbiyasi, komil inson, ma'naviy kamolot, bag'rikenglik.

Tasavvuf, VIII asrdan boshlab shakllangan falsafiy-diniy harakat sifatida, o'zbek xalqining ma'naviy, axloqiy qadriyatlari va milliy o'zligining shakllanishida alohida o'rin tutgan. Tasavvufiy g'oyalar inson kamolotini, axloqiy poklikni, nafs tarbiyasini va Allohga yaqinlikni asosiy maqsad sifatida oldinga surgan, bu esa xalqning ong va ma'naviyatiga chuqur ta'sir o'tkazgan. Tasavvufning shakllanishida turli diniy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sabablar muhim o'rin tutgan bo'lsa-da, uning markaziy g'oyasi Allohga yaqin bo'lish, inson nafsini poklash va axloqiy tarbiya orqali kamolotga erishish bo'lgan.

O'zbek xalqining milliy o'zligini shakllantirish jarayonida tasavvuf hanafiylik an'analari asosida qurilib, bu hududdagi musulmon jamoalarining ma'naviy va axloqiy qoidalariga mos ravishda rivojlangan. Hoji Bektoshi Valiy marifat bosqichining adab, qo'rquv, parxezkorlik, sabr va qanoat, hayo, jo'mardlik, ilm, miskinlik, ma'rifat, o'zni bilmak kabi 10 ta maqomi mavjudligini qayd etib o'tadi [1, 20].

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** So'fiylik g'oyalari islomiy ta'limotlar bilan birgalikda yunon falsafasi, zardushtiylik, buddaviylik va boshqa dinlardan ta'sirlangan bo'lishi mumkinligi haqida turli tadqiqotlar mavjud. Masalan, G'azzoliy tasavvufiy g'oyalarni islomiy axloq va ilohiyot ilmlari bilan bog'lagan va axloqni kamolotga yetishish vositasi deb hisoblagan. Bu g'oyalar O'rta Osiyo mintaqasida yashagan o'zbek xalqining axloqiy-diniy qadriyatlari, o'zligini anglash va ma'naviy merosining asosiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo'ldi.

Tasavvuf O'rta Osiyoda milliy ma'naviyatni rivojlantirishda o'ziga xos rol o'ynagan. Bu jarayon nafaqat diniy, balki ijtimoiy hayotga ham chuqur ta'sir ko'rsatgan. So'fiylikdagi insoniy poklik va axloqiy tarbiya g'oyalari milliy o'zlikning ajralmas qismidir, chunki ular nafaqat shaxsga, balki jamiyatga ham ma'naviy yuksalish yo'lini ko'rsatgan. Tasavvuf insoniyatning foniy hayotdan boqiy hayotga bo'lgan qarashini anglashga yordam bergan va bu g'oyalar o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va o'zligini shakllantirishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylangan. Shunday qilib, so'fiylik g'oyalari o'zbek xalqining milliy o'zligini





shakllantirishda va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu qadriyatlar hozirgi kunda ham dolzarb hisoblanadi. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf tasavvufni sunniy tasavvuf va falsafiy tasavvufga ajratadi. U ochiq yozadi: "Hozirgi kunimizda bu masala bizning diyorimizda unut bo'lgan edi. Shuning uchun boshqa bir tortishuvli masalalar qatori vahdatul vujudni qayta maydonga chiqishini istamas edik. Men o'zim bu masalani birovning esiga tushib qolishini aslo istamas edim. Bu masaladan xabardor birodarlarga ham uni qo'zg'almaslik kerakligini aytib yurar edim"[2, 204].

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** So'fiylik g'oyalari o'zbek xalqining milliy o'zligi, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarining shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu g'oyalar nafaqat din, balki falsafa, axloq, estetika va madaniyat bilan bog'liq murakkab ma'naviy tizim sifatida shakllangan. So'fiylik o'zining insonni ma'naviy kamolga yetkazishga qaratilgan g'oyalari orqali o'zbek xalqining axloqiy qadriyatlarini boyitgan. Uning markaziy g'oyalaridan biri Allohga yaqinlashish uchun nafsni tozalash, tarannum qilish va axloqiy poklikdir. Bu g'oyalar milliy ma'naviyatimizda yaxshilik, adolat, hurmat, sabr-toqat va kamtarlik kabi qadriyatlarning shakllanishiga xizmat qilgan. So'fiylik qadriyatlari orqali o'zbek xalqi o'zining milliy o'zligini saqlab qolishga va kuchaytirishga intilib kelgan. Masalan, Buxoro va Samarqand kabi shaharlar so'fiylik markazlari bo'lib, ular orqali xalqimiz madaniy merosi boyitilgan. So'fiylik orqali shakllangan xalq an'analari va urf-odatlar milliy o'zligimizning muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylangan. «Qurb (yaqinlik) – solikning o'zini tangri taologa yaqinlashganini xis etish holati, Hudoning xuzurini bevosita sezish, Hudo nigohini tushishini ham anglatadi...

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Muhabbat maqomi qalbdagi kuchli tug'yoning ko'rsatilishi, betoqat va bezovta bo'lib, barcha go'zalliklar manbai, qudratu nusrat, ne'matu rohat egasi Tangri tomon talpinishidir. Shavq-muhabbatning zo'rayishi, Uns – (do'stlashuv) esa ko'nikish, Xudo mehriga, shafqatga odatlanishini anglatadi.

Mujohida – nafsni mahv etishga qat'iy intilish, tanga mashaqqatni ravo ko'rib, ma'naviyat uchun jihod, ya'ni tangga kirish va g'alaba qilish, demak, Manna shunday jiddu jahd, shiddatli ruhiy iztiroblarda keyin solik Haq jamolini mushohida eta boshlaydi, mushohida (ko'rish) esa o'z navbatida g'ayb pardalarning ochilib, ilohiy sirlarining kashf etilishiga yo'l ochadi – mukoshifa martabasi hosil bo'ladi» [3, 30-31].

So'fiylik insonlar o'rtasida bag'rikenglik, mehr-shafqat va birdamlikka asoslangan. Bu esa o'zbek jamiyatidagi ijtimoiy muvozanat va hamjihatlikka





muhim hissa qo'shgan. Milliy o'zlikning bir qismi sifatida o'zbek xalqining madaniyatidagi bag'rikenglik tamoyili so'fiylik g'oyalardan oziqlangan. Hazrati Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshband kabi mashhur so'fiylar o'z asarlari orqali o'zbek xalqining ma'naviy kamoloti va axloqiy qadriyatlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Ular insonning o'z ruhiy olamini tarbiyalashga, boshqalarga yaxshilik qilishga va kamolga erishishga chaqiradigan uchqir ta'limotlar taqdim etganlar. So'fiylik madaniyati o'zbek adabiyoti, san'ati va arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatgan. So'fiylar yaratgan madaniy va ilmiy meros hozirgi kungacha xalqimiz ma'naviyati va axloqiy qarashlarining asosini tashkil etadi. Shu tariqa, so'fiylik g'oyalari o'zbek xalqining milliy o'zligi, ma'naviy va axloqiy qadriyatlari shakllanishiga chuqur ta'sir ko'rsatgan, ularning hayot tarzi va dunyoqarashida muhim o'rin tutadi.

Tasavvufning ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlili va uning Markaziy Osiyo, ayniqsa, o'zbek xalqining milliy o'zligi, ma'naviy va axloqiy qadriyatlari shakllanishidagi ahamiyati juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlarni tarixiy va falsafiy nuqtai nazardan ko'rib chiqish, ularning ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Tasavvuf ta'limoti, avvalambor, insonni ma'naviy kamolga yetkazish, uning axloqiy tarbiyasini shakllantirishga qaratilgan. Tasavvufning Markaziy Osiyodagi tarqalishi bilan zohidlik va tasavvuf maktablari yuzaga keldi, ularning asosiy maqsadi inson ruhini poklash, nafsni tarbiyalash va oliy axloqiy qadriyatlarga yetishish edi. Shuningdek, tasavvuf jamiyatda axloq va ma'naviyatni mustahkamlashning asosiy yo'llaridan biri bo'ldi. Bu jarayonda Najmiddin Kubro kabi mutafakkirlar ma'naviy tozalik va axloqiy kamolotga yetishish uchun belgilangan yo'llarni bayon qilib berdilar.

Tasavvufning asosiy maqsadi insonning ichki dunyosi, ya'ni botiniy komillikka erishish bo'lib, bu jarayonda inson nafsini tarbiyalash va ilohiy haqiqatni anglashga intilgan. Bu ma'naviy o'zgarishlar o'zbek xalqining milliy o'zligida chuqur o'rin egalladi, chunki axloq va ma'naviyat xalqning har bir jabhasida ahamiyat kasb etgan. Markaziy Osiyodagi tasavvuf maktablari, jumladan yassaviya, xojagon-naqshbandiya, kubraviya va ishqiya tariqatlari, xalqning milliy madaniyati va o'zligini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Bu tariqatlar orqali xalq o'zining milliy an'analari, madaniy qadriyatlari va dunyoqarashida o'zini saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan. Tasavvuf nafaqat diniy, balki madaniy va falsafiy qadriyatlarni ham shakllantirgan. «Kashf'ul mahjub» muallifining aytishicha, fuqoho singari boshqa kishilar ham, Olloh haqidagi ilmga «Ma'rifat» nomini berganlar. Tariqat shayxlari esa Olloh xususidagi sihatli holni «Ma'rifat» deya ataganlar» [4, 125].





O'zbek xalqining turli madaniy va ilmiy markazlari, xususan, Buxoro va Samarqand kabi shaharlar tasavvufning muhim nuqtalariga aylandi. Bu shaharlarda so'fiylar va ularning maktablari nafaqat ma'naviy, balki madaniy rivojlanishga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Tasavvuf jamiyatda ijtimoiy birdamlik, bag'rikenglik va hamjihatlik g'oyalarini rivojlantirishga yordam berdi. Bag'rikenglik va boshqalarga yaxshilik qilish tasavvufning asosiy tamoyillari bo'lib, bu qadriyatlar o'zbek jamiyatining asoslaridan biri sifatida shakllandi. So'fiylik orqali shakllangan ahloqiy tamoyillar o'zbek xalqining milliy o'zligini mustahkamlashga xizmat qildi. Tasavvufning ijtimoiy-falsafiy tahlilida komil inson konsepsiyasi markaziy o'rinni egallaydi. Xo'ja Ahror tariqatning ijtimoiy mazmuni uning xalqchilligida deb tushunadi va tariqat yo'liga kirgan kishilar uchun eng muhim ish musulmonlar bilan birga bo'lish, ularga madad berish deb ta'kidlaydi[5, 6]. Navoiy Xo'ja Ahrorning tariqat yo'lidagi xizmatlarini yuksak baholab uni «Irshod ahlining peshvosi» [6, 8] deb ta'rif bergan bo'lsa, Xasanxoja Nisoriy esa «Hazrat qutbulabror» [7, 91] deb atagan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Najmiddin Kubro va boshqa mutafakkirlar insonni komillikka yetkazish uchun nafsni poklash va ruhiy tarbiya zarurligini ta'kidladilar. Kubroning «Al-usul al-ashara» kabi asarlarida insonning ma'naviy kamolotga yetishish yo'llari va bosqichlari tasvirlangan. Bu ta'limotlar o'zbek xalqining ma'naviy rivojlanishi va axloqiy qadriyatlarini boyitishda muhim rol o'ynagan. Tasavvuf ijtimoiy hayotga ham katta ta'sir ko'rsatgan. So'fiylik jamiyatda insoniylik va ma'naviyatni ustun qo'yishni targ'ib qilgan, bu esa ijtimoiy barqarorlik va adolatli munosabatlarni shakllantirishda muhim bo'lgan. Tasavvufning ijtimoiy ta'siri orqali xalq o'rtasida jamiyat va insonlar o'rtasidagi munosabatlar yaxshilangan, ular o'zaro hurmat, mehr-shafqat va bag'rikenglik asosida qurilgan.

References:

- [1] Ҳожа Бектоши Валий. Мақолот / Сўзбоши муаллифи ва таржимон И. Ҳаққул; масъул муҳаррир С. Рафиддинов. – Тошкент: А. Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2000. –Б. 20.
- [2] Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Тошкент: «Мовароуннаҳр», 2004. – 204 б.
- [3] Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Биринчи китоб. – Тошкент: «Ёзувчи», 1996. –Б. 30-31.
- [4] Тасаввуф луғати // Тафаккур. –Тошкент: 1997. № 3. –Б. 125.
- [5] Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. Рисолаи волидия / Заҳириддин Муҳаммад Бобур таржимаси. –Тошкент: «Ёзувчи», 1991. –Б. 6.





- [6] Навоий А. Сирож ул-муслимин // Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. – Тошкент: «Фан», 2000. – Т. 16. – Б. 8.
- [7] Нисорий Ҳасанхожа. Музаккири аҳбоб. Форс тилидан Исмоил Бекжон таржимаси. –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993. –Б. 91.

